

## XIII. DEMOGRAFIK HOLAT

Andijon viloyati 1941-yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,30 ming kv. km Chegara uzunligi 617,1 km Andijon viloyati Farg'ona viloyati bilan (75,0 km), Namangan viloyati bilan (67,0 km), Qirg'iz Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 780 kv. km.ga 1 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Andijon shahri bo'lib, aholisi 3 376,1 ming kishi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 376,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 53,3 ming kishiga yoki 1,6 % ga o'sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1 763,3 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 612,8 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi.

### Doimiy aholi soni

**3 376,1** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**54,6** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



52,2 %

**1 763,3** ming kishi

#### Qishloq joylarda



47,8 %

**1 612,8** ming kishi



50,7 %

**1 710,3** ming kishi

49,3 %

**1 665,8** ming kishi



**Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi**  
2023-yil 1-oktabr holatiga



**ANDIJON VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI**

*2023-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumotlar*



**Doimiy aholi soni**

**3 376 045** kishi



**Tug'ilganlar soni**

**66 331** kishi



**O'lganlar soni**

**11 701** kishi



**Nikohlar soni**

**15 602** birlik



**Nikohdan ajralishlar soni**

**4 273** birlik



**Ko'chib kelganlar soni**

**5 081** kishi

*shundan, xorijdan*

*4 kishi*



**Ko'chib ketganlar soni**

**6 388** kishi


*shundan, xorijga*

*73 kishi*

**Andijon viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni  
to'g'risida ma'lumot**  
(2023-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma'lumot)

	<i>Doimiy aholi soni, kishi</i>				
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkaklar</i>	<i>ayollar</i>	<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 376 045</b>	<b>1 710 236</b>	<b>1 665 809</b>	<b>1 763 239</b>	<b>1 612 806</b>
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	477 637	240 706	236 931	477 637	-
Xonobod	45 644	22 782	22 862	38 770	6 874
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	191 424	96 791	94 633	100 358	91 066
Andijon	284 519	142 111	142 408	218 118	66 401
Baliqchi	214 688	109 469	105 219	71 495	143 193
Bo'ston	77 441	39 098	38 343	27 475	49 966
Buloqboshi	152 238	77 547	74 691	73 210	79 028
Jalaquduq	197 984	100 910	97 074	82 521	115 463
Izboskan	253 982	129 530	124 452	81 199	172 783
Ulug'nor	63 665	31 863	31 802	6 721	56 944
Qo'rg'ontepa	229 215	115 519	113 696	97 887	131 328
Asaka	353 006	178 558	174 448	109 087	243 919
Marhamat	185 276	94 586	90 690	145 555	39 721
Shahrixon	322 590	164 830	157 760	106 774	215 816
Paxtaobod	207 529	105 220	102 309	75 816	131 713
Xo'jaobod	119 207	60 716	58 491	50 616	68 591

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2023-yil 1-oktabr holatiga, ming kishi)



## Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni va o'sish sur'ati

	2022-yil 1-oktabr holatiga, kishi	2023-yil 1-oktabr holatiga, kishi	O'tgan yining mos davrilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 304 251</b>	<b>3 376 045</b>	<b>102,2</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	465 752	477 637	102,6
Xonobod	44 722	45 644	102,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	187 911	191 424	101,9
Andijon	278 537	284 519	102,1
Baliqchi	210 085	214 688	102,2
Bo'ston	75 888	77 441	102,0
Buloqboshi	148 965	152 238	102,2
Jalaquduq	194 335	197 984	101,9
Izboskan	248 880	253 982	102,0
Ulug'nor	62 677	63 665	101,6
Qo'rg'ontepa	225 067	229 215	101,8
Asaka	345 455	353 006	102,2
Marhamat	181 514	185 276	102,1
Shahrixon	315 215	322 590	102,3
Paxtaobod	202 919	207 529	102,3
Xo'jaobod	116 329	119 207	102,5

### Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar-sentabr)


	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022-yil	2023-yil	o'sish, kamayish, +,-	2022-yil	2023-yil
Tug'ilganlar	63 433	66 331	2 898	25,9	26,5
O'lganlar	11 405	11 701	296	4,7	4,7
Nikohlar	16 405	15 602	-803	6,7	6,2
Ajralishlar	3 672	4 273	601	1,5	1,7
Ko'chib kelganlar	4 972	5 081	109	2,0	2,0
Ko'chib ketganlar	6 277	6 388	111	2,6	2,5

**Tug‘ilish.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 66 331 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (63 433 kishi) nisbatan 2 898 taga ko‘paygan, Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 26,5 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 0,6 promilleda o‘sgan.




**Viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni hamda koeffitsiyenti**  
2023-yil yanvar-sentabr davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)

*Tirik tug‘ilganlar soni, kishi*



*Tug‘ilish koeffitsiyenti*  
(1000 aholiga nisbatan, promille)



**Tug‘ilganlar sonining jinsi va tug‘ilgan joyi bo‘yicha taqsimlanishi**  
2023-yil yanvar-sentabr holatiga, kishi




	Jami	jinsi bo‘yicha		joyi bo‘yicha	
		o‘g‘il bolalar	qiz bolalar	shahar	qishloq
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>66 331</b>	<b>34 106</b>	<b>32 225</b>	<b>35 450</b>	<b>30 881</b>
<i>shaharlar:</i>					
Andijon sh.	12 063	6 331	5 732	12 063	-
Xonobod sh.	716	346	370	716	-
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko‘l	2 929	1 511	1418	1452	1477
Andijon	5 374	2 735	2 639	4 208	1166
Baliqchi	4 230	2 153	2 077	962	3 268
Bo‘ston	1496	761	735	651	845
Buloqboshi	2 936	1 505	1 431	1 298	1 638
Jalaquduq	3 769	1 875	1 894	1 481	2 288
Izboskan	4 801	2 548	2 253	1 455	3 346
Ulug‘nor	949	475	474	163	786
Qo‘rg‘ontepa	3 906	2 013	1 893	1 701	2 205
Asaka	6 674	3 429	3 245	2 179	4 495
Marhamat	3 529	1 841	1 688	2 472	1057
Shahrixon	6 599	3 336	3 263	2 272	4 327
Paxtaobod	4 120	2 119	2 001	1 540	2 580
Xo‘jaobod	2 240	1128	1112	837	1403

2023-yil yanvar-sentabr davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 34 106 nafarni yoki jamidan 51,4 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 32 225 nafar va jamidan 48,6 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 35 450 nafarni (jamidan 53,4 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 30 881 nafarni (jamidan 46,6 %) tashkil etdi.

**Vafot etganlar.** 2023-yil yanvar-sentabr oylarida 11 701 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

## O‘limning sabablari bo‘yicha taqsimlanishi (yanvar-sentabr)



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,9 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,7 % o‘smalardan, 4,7 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,6 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 6,6 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 1,4 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,1 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni 15 602 ta (o‘tgan yilning mos davrida 16 405 ta), ajrimlar soni 4 273 ta (o‘tgan yilda 3 672 ta)ga teng bo‘ldi. Qayd etilgan nikoh ko‘rsatkichi aholiga nisbatan 6,2 promilleni (2022-yilning tegishli davrida 6,7 promille) va ajrim ko‘rsatkichi 1,7 promilleni (2022-yilning tegishli davrida 1,5 promille) tashkil etdi.


## Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-sentabr)


(birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>16 405</b>	<b>15 602</b>	<b>3 672</b>	<b>4 273</b>
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	2 772	2 550	784	807
Xonobod	188	200	50	62
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	995	950	209	205
Andijon	1 420	1 335	354	408
Baliqchi	1 001	970	158	210
Bo'ston	339	313	83	100
Buloqboshi	737	685	160	179
Jalaquduq	1 015	883	151	222
Izboskan	1 210	1 154	289	332
Ulug'nor	252	223	71	78
Qo'rg'ontepa	930	966	159	261
Asaka	1 550	1 573	375	440
Marhamat	878	864	182	227
Shahrixon	1 534	1 468	308	344
Paxtaobod	997	924	219	262
Xo'jaobod	587	544	120	136






Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar soni va nikohlar koeffitsiyenti  
2023-yil yanvar-sentabr holatiga



Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Qo'rg'ontepa tumanida (0,1 promillega) kuzatilmadi.


Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Oltinko'l tuman (0,6 promillega), Ulug'nor tumanlari (0,7 promillega) va Andijon shaharida (0,8 promillega) kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni**  
(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlik)



Ajrim koeffitsiyentida aksariyat tumanlarda avvalgi yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sish Baliqchi tumanida (0,3 promillega), Qo'rg'ontepa va Jalaquduq tumanlarida (0,5 promillega) ro'y berdi.

**Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti**  
(2023-yil yanvar-sentabr davri, 1000 aholiga nisbatan, promille)





**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5 081 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 6 388 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus -1 305 kishini tashkil etgan, 2022-yilning mos davrida minus -1 307 kishi bo'lgan.

**Aholining migratsiya ko'rsatkichlari**  
(yanvar-sentabr)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>4 972</b>	<b>5 081</b>	<b>6 277</b>	<b>6 388</b>	<b>-1 305</b>	<b>-1 307</b>
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	1 324	1 445	1 620	1 555	-296	-110
Xonobod	188	212	119	152	69	60
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	454	361	322	298	132	63
Andijon	886	797	663	726	223	71
Baliqchi	199	155	277	327	-78	-172
Bo'ston	141	102	138	123	3	-21
Buloqboshi	101	137	296	259	-195	-122
Jalaquduq	205	183	388	433	-183	-250
Izboskan	35	34	430	367	-395	-333
Ulug'nor	21	40	99	104	-78	-64
Qo'rg'ontepa	212	409	402	461	-190	-52
Asaka	215	292	396	404	-181	-112
Marhamat	167	155	260	294	-93	-139
Shahrixon	138	149	379	358	-241	-209
Paxtaobod	217	130	269	268	-52	-138
Xo'jaobod	469	480	219	259	250	221

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlar iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.